| <b>Xudayberdieva Dilnoza Egamberdiyevna</b>                                                                                                   |     |
| Indicators and criteria of women's sustainable employment in the context of economic growth.....                                              | 262 |
| <b>Khaliyorova Shokhista Kahramon kizi</b>                                                                                                    |     |
| Qishloq xo'jaligi sohasida “Salam” maxsus savdo shartnomalaridan foydalanish istiqbollari.....                                                | 267 |
| <b>Xoliyorov Xomid</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Davlat xaridlarida kichik biznesning ortib borishi va uning umumiy tizimdagi oʻrni .....                                                  | 269 |
| <b>Majidov Nizom Baxramovich</b>                                                                                                          |     |
| Davlat qarzlari qaytarish mexanizmlarini takomillashtirish va tashqi xatarlardan himoyalash yoʻnalishlari .....                           | 273 |
| <b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>                                                                                                  |     |
| Xalqaro moliya institutlaridan investitsiyalarni jalb qilishning ahamiti .....                                                            | 277 |
| <b>Tolibov Shoxrux Muminovich</b>                                                                                                         |     |
| Oʻzbekiston respublikasining soliq salohiyati: 2024-yilda viloyatlar va Qoraqalpogʻiston.....                                             | 280 |
| <b>Poyonov Otabek Abdiqaxxor oʻgʻli, Almardonov Muxamadi Ibragimovich, Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich</b>                            |     |
| Oliy taʼlim muassasalarida investitsiya muhitini boshqarishning institutsional mexanizmlari .....                                         | 283 |
| <b>Otaxanov Rasulbek Marks oʻgʻli</b>                                                                                                     |     |
| Автоматизированное управление корпоративными расходами: стратегический подход и экономическая эффективность.....                          | 286 |
| <b>Кахоров Абдумалик Рахматулло угли</b>                                                                                                  |     |
| Повышающаяся значимость коренного изменения деятельности традиционных СМИ в реалиях освещения процесса построения нового Узбекистана..... | 289 |
| <b>Салим Дониёров</b>                                                                                                                     |     |
| Raqamli transformatsiyaning mohiyati va bank sohasidagi ahamiyati.....                                                                    | 294 |
| <b>Kamolov Sardorbek Davlatjon oʻgʻli</b>                                                                                                 |     |



## RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MOHIYATI VA BANK SOHASIDAGI AHAMIYATI

**Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li**

«AT «Aloqabank» Navoiy Hududiy kompleks  
xizmatlar ko'rsatish markazi  
Operatsion faoliyat bo'yicha direktor

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda raqamli transformatsiya tushunchasining nazariy asoslari hamda bank tizimidagi amaliy qo'llanilishi atroflicha yoritilgan. Raqamli texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, Big Data, bulutli hisoblash va API-platformalar orqali bank tizimining xizmat ko'rsatish uslubi, tashkiliy modeli va mijozlarga yondashuvi qanday o'zgarayotgani O'zbekiston tajribasi misolida tahlil qilingan. Tahlillarda "TBC Bank", "Kapitalbank", "Hamkorbank" va "Anorbank" kabi banklar faoliyatida joriy etilgan raqamli yechimlar, ularning samaradorligi va kelgusidagi transformatsiya bosqichlari yoritib berilgan. Shuningdek, an'anaviy bank tizimi va raqamli banklar o'rtasidagi asosiy farqlar jadval asosida ko'rsatilgan. Xulosa qismida esa banklar uchun ustuvor strategik yo'nalishlar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamli transformatsiya, bank tizimi, sun'iy intellekt, Big Data, raqamlashtirish, mobil bank xizmatlari, API-platforma, open banking, E-IMZO, kredit skoring, fraud-detektsiya, LSTM modeli, chatbotlar, CX-model, O'zbekiston banklari, raqobatbardoshlik, avtomatlashtirish, masofaviy xizmatlar.

**Abstract:** This thesis thoroughly explores the theoretical foundations of digital transformation and its practical application in the banking sector. The study analyzes how digital technologies—including artificial intelligence, Big Data, cloud computing, and API platforms—are reshaping service delivery models, organizational structures, and customer engagement approaches, using the experience of Uzbekistan as a case study. It presents an in-depth analysis of digital solutions implemented by banks such as TBC Bank, Kapitalbank, Hamkorbank, and Anorbank, evaluating their effectiveness and outlining future stages of transformation. Furthermore, a comparative table highlights the key differences between traditional and digital banking systems. The conclusion section proposes strategic priorities for banks to enhance their competitiveness in the digital era.

**Key words:** Digital transformation, banking system, artificial intelligence, Big Data, digitalization, mobile banking services, API platform, open banking, E-IMZO, credit scoring, fraud detection, LSTM model, chatbots, CX model, banks of Uzbekistan, competitiveness, automation, remote services.

**Аннотация:** В данном тезисе всесторонне раскрыты теоретические основы понятия цифровой трансформации, а также его практическое применение в банковской системе. На примере опыта Узбекистана проанализированы изменения в подходах к обслуживанию, организационной модели и взаимодействию с клиентами в результате внедрения цифровых технологий, включая искусственный интеллект, Big Data, облачные вычисления и API-платформы. В исследовании представлены цифровые решения, внедрённые в деятельность таких банков, как TBC Bank, Kapitalbank, Hamkorbank и Anorbank, дана оценка их эффективности и обозначены этапы дальнейшей цифровой трансформации. Кроме того, в табличной форме показаны ключевые различия между традиционной банковской системой и цифровыми банками. В заключительной части сформулированы приоритетные стратегические направления для банков в условиях цифровой экономики.

**Ключевые слова:** Цифровая трансформация, банковская система, искусственный интеллект, Big Data, цифровизация, мобильные банковские услуги, API-платформа, открытое банковское обслуживание (open banking), E-IMZO, кредитный скoring, обнаружение мошенничества (fraud-detection), модель LSTM, чат-боты, модель клиентского опыта (CX), банки Узбекистана, конкурентоспособность, автоматизация, дистанционные услуги.



## KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida moliyaviy tizim tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, bank sohasida xizmat ko'rsatish shakllari, mijozlarga yondashuv va operatsion jarayonlar zamonaviy raqamli vositalar asosida qayta formatlanmoqda. Bunday jarayon ilmiy va amaliy adabiyotlarda “raqamli transformatsiya” deb yuritiladi. Raqamli transformatsiya — bu tashkilot faoliyatining barcha yo'nalishlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt (SI), Big Data, bulutli hisoblash va API-platformalar yordamida tubdan yangilash jarayonidir. Bu oddiy raqamlashtirish yoki avtomatlashtirish bilan emas, balki bankning tashkiliy strukturasidan tortib mijozlar bilan munosabatigacha bo'lgan barcha jihatlarining transformatsiyasini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasida bank-moliya sektorida raqamli texnologiyalarni joriy etish alohida ustuvorlik sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda quyidagilar qayd etilgan: “Moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda raqamli texnologiyalar asosida yuqori samaradorlikka erishish, tijorat banklarining onlayn xizmatlarini kengaytirish, shaxsiylashtirilgan moliyaviy yechimlar joriy etilishi – raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismidir.” Bu strategik yondashuvga muvofiq, O'zbekiston bank sektori ham raqamli transformatsiya yo'nalishida izchil qadamlar qo'yimoqda.

Raqamli transformatsiyaning bank tizimiga ta'siri ko'plab yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Masalan, ilgari kredit olish uchun mijozlar bank filialiga borib, ko'plab hujjatlarni taqdim etishi kerak edi. Bugungi kunda esa ko'plab banklar, xususan “Ipak Yo'li” banki, “Hamkorbank”, “TBC Bank” Uzbekistan va “Kapitalbank” kreditlarni mobil ilova orqali, avtomatlashtirilgan scoring tizimlari yordamida 10–15 daqiqada rasmiylashtirish imkonini bermoqda. “TBC Bank” to'liq raqamli bank modeli asosida ishlaydi: u filialga ega emas va barcha xizmatlarni 100% mobil ilova orqali ko'rsatadi. Bu esa, an'anaviy banklar bilan solishtirganda, xizmatlar tezligi, xarajatlarning kamayishi, shaxsiylashtirish va 24/7 faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

An'anaviy bank tizimi va raqamli bank o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. An'anaviy banklar mijozlarga offlayn (filial) orqali xizmat ko'rsatadi, xizmatlar ish vaqti bilan cheklangan bo'lib, hujjatlar ko'pincha qog'oz ko'rinishida yuritiladi. Raqamli bank esa barcha xizmatlarni mobil ilova yoki veb-interfeys orqali, uzluksiz va masofaviy tarzda taqdim etadi. Unda kredit baholash jarayonlari avtomatlashtirilgan, mijoz bilan muloqot chatbotlar va sun'iy intellekt orqali olib boriladi. Masalan, “Hamkorbank” raqamli xizmatlar ulushini 65% ga yetkazgan bo'lsa, “Kapitalbank” esa 2023-yilda API asosida ochiq bank xizmatlari platformasini ishga tushirib, innovatsion texnologiyalarni faol joriy etmoqda.

Raqamli transformatsiya bank tizimida bir necha asosiy bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Birinchi bosqich — raqamlashtirish (digitization), bu jarayonda qog'ozdagi hujjatlar elektron shaklga o'tkaziladi. O'zbekistonda bu amaliyot E-IMZO tizimi orqali keng joriy etilgan. Ikkinchi bosqich — raqamli optimallashtirish (digitalization) bo'lib, bunda jarayonlar avtomatlashtiriladi. Masalan, “Agrobank” mobil ilovasiga real vaqtli kredit to'lov grafigi va xatolik aniqlovchi modullar integratsiya qilgan. Uchinchi bosqich — to'liq transformatsiya, bu bosqichda bankning biznes modeli, ichki madaniyati va xizmat ko'rsatish konsepsiyasi to'liq yangilanadi. “Kapitalbank” bu bosqichda Open API arxitekturasini asosida xizmatlar ko'rsatmoqda. To'rtinchi bosqich — AI integratsiyasi va Data-Driven qaror qabul qilish, bu bosqichda banklar sun'iy intellektga asoslangan bashoratlash, fraud monitoring va shaxsiy xizmatlar taklif etadi. “Xalq banki” LSTM algoritmi yordamida pensiya va to'lovlarni prognozlash mexanizmini ishlab chiqqan. Nihoyat, beshinchi bosqich — mijozga yo'naltirilgan model (CX-focused) bo'lib, bunda mijoz harakatlarini o'rganish, personal takliflar va proaktiv xizmat ko'rsatish joriy etiladi. “Anorbank” tomonidan mijozlar uchun shaxsiy cashback tizimi va omnikanalli xizmatlar orqali mijozlar bazasi 40% ga kengaygan.

Shunday qilib, O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya muhim strategik vazifa sifatida shakllanib bormoqda. Bu transformatsiya bank xizmatlarining nafaqat texnik jihatlarini, balki mijozlarga bo'lgan yondashuvni ham tubdan o'zgartirib, moliyaviy sektorning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

### ASOSIY QISM

Raqamli transformatsiya — bu raqamli texnologiyalarni tashkilotning barcha faoliyat jarayonlariga chuqur integratsiya qilish orqali xizmat ko'rsatish sifati, samaradorlik va innovatsion salohiyatni oshirish jarayonidir. Bu atama, odatda, shunchaki kompyuterlashtirish yoki avtomatlashtirish bilan cheklanmaydi, balki tashkilotning ichki madaniyatini, ish jarayonlarini va mijozlar bilan aloqalarini tubdan qayta ko'rib chiqishni anglatadi.

Bank sektorida raqamli transformatsiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u bankning barcha yo'nalishlariga (kreditlash, to'lovlar, depozitlar, mijozlarga xizmat ko'rsatish, xavfsizlik) bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir quyidagi misollarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Kreditlash tezligi: ilgari 3–5 ish kunini talab qilgan kreditlar hozirda avtomatik scoring tizimlari orqali 15–30 daqiqada tasdiqlanmoqda. Masalan, «Ipak Yo'li» banki mobil ilovasi orqali 5 million so'mgacha mikroqarzlarini 15 daqiqada ajratmoqda.



To'lov tizimlari: masalan, «Kapitalbank» ilovasi orqali kommunal, mobil va davlat to'lovlarini bir necha soniyada amalga oshirish mumkin.

Kadrlar faoliyatiga ta'siri: raqamli texnologiyalar bilan ishlay oladigan data analyst, digital officer, IT-auditor kabi yangi kasblar vujudga keldi. Bu yangi lavozimlar ayniqsa "Xalq banki" va "Aloqabank" kabi yirik banklar strukturasiida paydo bo'lmoqda.

Xavfsizlik va monitoring: AI asosidagi fraud-detektsiya tizimlari yordamida shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlash imkoniyati yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yilda "AI-bazaviy fraud-monitoring platformasini" sinovdan o'tkazgan.

Shu tarzda, raqamli transformatsiya bank tizimini innovatsion ekotizimga aylantirib, xizmatlarni 24/7 rejimida uzluksiz ko'rsatish imkonini bermoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida an'anaviy bank tizimi bilan to'liq raqamli bank o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagicha ifodalanadi:

#### An'anaviy va raqamli banklar taqqoslovchi jadvali

| Ko'rsatkich                | An'anaviy bank                        | Raqamli bank                                  |
|----------------------------|---------------------------------------|-----------------------------------------------|
| Xizmat ko'rsatish usuli    | Offlayn (filial orqali)               | Onlayn (mobil/veb ilova orqali)               |
| Ish vaqti                  | 09:00 – 18:00, ish kunlari            | 24/7, haftaning har kuni                      |
| Hujjat aylanmasi           | Qog'oz shaklida                       | Elektron shaklda, E-IMZO, QR orqali           |
| Kredit ajratish jarayoni   | Qo'lda, ko'p bosqichli                | Avtomatlashtirilgan, tezkor                   |
| Xizmat narxi va xarajatlar | Yuqori (filial va xodimlar soni ko'p) | Past (resurslar optimallashtirilgan)          |
| Mijozga yondashuv          | Ommaviy xizmat                        | Shaxsiylashtirilgan takliflar, AI tavsiyalari |

O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich va izchil tarzda amalga oshirilmoqda. Jumladan, "TBC Bank Uzbekistan" mamlakatdagi ilk to'liq raqamli bank sifatida hech qanday filiallarsiz, 100 foiz mobil ilova orqali mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda. Bu model bank tizimida raqamli ekotizimga o'tish imkoniyatlarini amalda isbotlab berdi. Shuningdek, "Hamkorbank" o'zining "Hamkor Mobile" ilovasi orqali 2024-yil holatiga ko'ra, raqamli xizmatlar ulushini 65 foizga yetkazishga erishdi. Bu esa bank mijozlarining aksariyat moliyaviy operatsiyalarni masofadan turib bajarish imkoniyatiga ega bo'lganini anglatadi. Ayni vaqtda, ayrim kichik va an'anaviy modelda ishlovchi banklar hali ham to'lovlarni qabul qilish, kredit ajratish yoki depozit ochish uchun mijozlardan filialga bevosita murojaatni talab qilmoqda, bu esa ularning raqamli transformatsiya jarayonida sust rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya bank tizimida bir necha bosqichlar asosida amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqich — raqamlashtirish (digitization) bo'lib, bunda qog'ozdagi hujjatlar raqamli formatga o'tkaziladi. O'zbekistondagi ko'plab banklar 2021-yildan boshlab shartnomalarni E-IMZO orqali elektron tarzda tasdiqlash amaliyotini keng joriy etgan. Ikkinchi bosqich — raqamli optimallashtirish (digitalization) bo'lib, bu bosqichda bank xizmatlari avtomatlashtiriladi. Masalan, "Agrobank" o'zining mobil ilovasiga real vaqti kredit to'lov grafigi hamda xatoliklarni aniqlovchi maxsus modullarni integratsiya qilgan. Uchinchi bosqich — to'liq raqamli transformatsiya (digital transformation) bo'lib, unda banklarning ichki ish jarayonlari, xizmat ko'rsatish modeli va texnologik arxitekturasida tubdan o'zgaradi. "Kapitalbank" 2023-yilda open banking konsepsiyasiga asoslangan API-platformani ishga tushirgan bo'lib, bu turli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan o'zaro bog'lanishni soddalashtirdi.

To'rtinchi bosqich — AI integratsiyasi va Data-Driven yondashuv hisoblanadi. Bu bosqichda banklar sun'iy intellekt yordamida kredit skoring, fraud-detektsiya va prognozlash kabi jarayonlarni avtomatlashtirmoqda. Misol tariqasida, "Xalq banki" ijtimoiy to'lovlar va pensiyalarni oldindan bashoratlashda LSTM (Long Short-Term Memory) modelini joriy etgan. Nihoyat, beshinchi bosqich — mijozga yo'naltirilgan model (CX-focused) bo'lib, bu bosqichda bank xizmatlari har bir mijozning ehtiyojiga moslashtiriladi. "Anorbank" 2024-yil davomida shaxsiy takliflar, cashback tizimi va omnikanalli xizmatlar orqali o'z mijozlar bazasini 40 foizga oshirishga erishdi.

Shu tarzda, O'zbekiston tajribasi raqamli transformatsiya bank tizimini yangilashda nafaqat texnik vosita, balki strategik menejment yondashuvi sifatida qaralayotganini ko'rsatmoqda. Yuqoridagi misollar raqamli xizmatlar joriy etilishi natijasida banklar operatsion samaradorlikka, xizmatlar sifatining oshishiga va mijozlar sodiqligining mustahkamlanishiga erishayotganini yaqqol namoyon etadi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli transformatsiya – bu texnologiyalar asosida tashkilotlarning butun faoliyat modeli va xizmat ko'rsatish mexanizmini tubdan qayta shakllantirish jarayonidir. Bank sohasida bu jarayon kreditlash, to'lov tizimlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, xavfsizlik va operatsion boshqaruv kabi barcha yo'nalishlarga chuqur kirib bormoqda. Bugungi kunda bank tizimining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan aynan qanday raqamli echimlar joriy etilganiga va ular qanchalik samarali ishlashiga bog'liq.

O'zbekiston tajribasida raqamli transformatsiya faol va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Masalan, "TBC Bank Uzbekistan" mamlakatda ilk to'liq raqamli bank sifatida filialsiz faoliyat yuritmoqda va barcha xizmatlarni mobil ilova orqali ko'rsatmoqda. Bu bank, an'anaviy banklarga qaraganda, ish vaqtining cheklanmaganligi, foydalanuvchi qulayligi va past xarajatlar bilan ajralib turadi. "Hamkorkbank" esa "Hamkor Mobile" ilovasi orqali 2024-yilda raqamli xizmatlar ulushini 65 foizga yetkazdi. Bu bankda mijozlar, odatiy filialga borishga hojat qolmasdan, hisob raqami ochish, kredit olish, to'lovlarni amalga oshirish va ariza topshirish kabi jarayonlarni to'liq onlayn bajarishi mumkin. Ayni vaqtda, ba'zi kichik banklar hali ham kredit olish yoki depozit ochish uchun mijozning filialga kelishini talab qilmoqda, bu esa an'anaviy modelning cheklovlarini ko'rsatadi.

An'anaviy bank tizimi va raqamli bank o'rtasida qator farqlar mavjud. An'anaviy banklar ish vaqtiga bog'liq, hujjat aylanmasi qog'ozli va mijozlar bilan bevosita uchrashuv talab etiladi. Aksincha, raqamli banklar 24/7 xizmat ko'rsatadi, barcha jarayonlar elektron shaklda va avtomatlashtirilgan. "Kapitalbank" 2023-yilda API-platforma va open banking konsepsiyasini joriy etgan holda, texnologik jihatdan o'z xizmatlarini kengaytirdi. Bu orqali bank boshqa tashkilotlar bilan tez va xavfsiz integratsiya qilinadigan xizmatlarni yo'lga qo'ydi.

Raqamli transformatsiya jarayoni bank tizimida bir necha bosqichlarda amalga oshirilmoqda. Birinchi bosqich – raqamlashtirish (digitization) bo'lib, bu bosqichda hujjatlar elektron shaklga o'tkaziladi. O'zbekiston banklarida 2021-yildan boshlab E-IMZO orqali shartnomalarni tasdiqlash yo'lga qo'yilgan. Ikkinchi bosqich – raqamli optimallashtirish (digitalization), bu yerda jarayonlar avtomatlashtiriladi. Masalan, "Agrobank" ilovasi kredit to'lov grafigini avtomatik hisoblab beruvchi modul bilan boyitilgan. Uchinchi bosqich – to'liq raqamli transformatsiya, bu bosqichda bankning ichki madaniyati, texnologik arxitekturasini va xizmat ko'rsatish strategiyasi to'liq yangilanadi. Bu borada "Kapitalbank" yetakchilardan biridir. To'rtinchi bosqich – AI va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven) bo'lib, bunda qarorlar sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish asosida qabul qilinadi. "Xalq banki" pensiya to'lovlarni bashorat qilish uchun LSTM modellarini joriy qilgan. Nihoyat, beshinchi bosqich – mijozga yo'naltirilgan xizmat (CX-focused model) bo'lib, bunda har bir foydalanuvchiga shaxsiylashtirilgan taklif va xizmatlar taqdim etiladi. "Anorbank" cashback, proaktiv takliflar va foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali mijozlar bazasini 40 foizga oshirishga erishgan.

Umuman olganda, O'zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiyaning chuqurlashuvi tobora yaqqol ko'zga tashlanmoqda. So'nggi yillarda yetakchi tijorat banklari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sifati va mijozlar ehtiyojiga moslashuvchanlikni oshirishga erishmoqda. Bu borada "TBC Bank", "Kapitalbank", "Hamkorkbank" va "Anorbank" kabi moliya muassasalari o'z faoliyat modelini to'liq raqamlashtirish yo'lida katta bosqichlarni bosib o'tdi. Shu bilan birga, ayrim kichik va an'anaviy modelda ishlovchi banklarda transformatsiya jarayoni hali ham modernizatsiya bosqichida qolmoqda, bu esa tizimda raqamli yetuklik darajasining banklar kesimida farq qilayotganini anglatadi. Raqamli transformatsiyaning asosiy afzalliklari, avvalo, xizmatlar tezligi va qulayligining oshishi, operatsion xarajatlarning kamayishi, mijozlar bazasining kengayishi, xavfsizlik tizimlarining kuchayishi va innovatsion moliyaviy mahsulotlar ko'lamining ortishi bilan namoyon bo'lmoqda. Transformatsiyalangan banklarda mijozlar 24/7 rejimida masofadan turib xizmat olish imkoniyatiga ega bo'lib, kredit ajratish jarayonlari avtomatlashtirilgan skoring algoritmlari asosida soniyalar ichida amalga oshirilmoqda. Operatsion xarajatlar esa xizmatlarning raqamli platformalarga ko'chirilishi hisobiga 20–40 foizgacha qisqargan. Kelgusi bosqichda banklar uchun ustuvor yo'nalishlar sifatida Big Data arxitekturasini takomillashtirish, sun'iy intellekt asosida qabul qilinadigan qarorlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi texnologiyalarni joriy etish, shaxsiylikni himoyalash mexanizmlarini kuchaytirish hamda raqamli transformatsiyani ichki madaniyat darajasiga olib chiqish lozim. Faqat mana shunday kompleks va tizimli yondashuv bilangina O'zbekiston bank tizimi raqamli transformatsiyani real iqtisodiy barqarorlikka, rentabellikka va xalqaro raqobatbardoshlikka xizmat qiluvchi muhim vosita darajasiga ko'tarishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ–4699-sonli qarori "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4802561>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Raqamli transformatsiya strategiyasi" hisobotlari, 2023–2024. <https://cbu.uz/>
3. Kapitanova, L. (2022). "Bank ishi va moliya tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish tendensiyalari". Iqtisodiyot va innovatsiyalar, №4(65), 23–29.



4. TBC Bank Uzbekistan rasmiy sayti: <https://www.tbcbank.uz>
5. Hamkorbank raqamli xizmatlari statistik ma'lumotlari. <https://hamkorbank.uz>
6. "Kapitalbank" – API platforma va open banking xizmatlari. Kapitalbank yillik hisobotlari, 2023. <https://kapitalbank.uz>
7. Xalq Banki AI va LSTM modeli asosidagi tahlillar bo'yicha press-revizlar. <https://xalqbank.uz>
8. Anorbank. Raqamli xizmatlar va mijozlar bazasi o'sishi haqida yillik hisobot, 2024. <https://anorbank.uz>
9. Qodirov A. "Moliyaviy xizmatlarda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi". – Bank ishi jurnali, 2023, №3, B. 45–51.
10. Yusupov M. "O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari". – Iqtisodiy fanlar axborotnomasi, 2022, №2(48), B. 70–75.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025-yil, may.**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---